IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYANI TIL O‘RGATISH JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH USLUBLARI

Tashpulatova Feruza Sultanovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Roman-german filologiyasi fakulteti, ispan tili nazariy fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Tel: +998 93 506 05 45
Elektron pochra manzili: feruzasultanova19740401@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy-madaniy kompetensiya pedagogik muammo sifatida tadqiq etilgan. Unda ijtimoiy kompetensiyaning mazmuni, maqsadi hamda bo‘lajak pedagoglarda uni takomillashtirish zarurati yoritilgan. Ijtimoiy kompetensiyaga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, tadqiqot metodologiyasi bayon etilgan. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning tamoyillari, usullari va vositalari aniqlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kompetentlik, erkinlik, kompetentli yondashuv, tayanch kompetensiyalar, siyosiy kompetensiyalar, ijtimoiy kompetensiyalar, bilimlilik, kasbiy faoliyat, shaxsiy fazilatlar, pedagogik imkoniyatlar, tamoyillar, shakl va vositalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается социокультурная компетентность как педагогическая проблема. Освещаются содержание и цель социальной компетентности, а также необходимость её совершенствования у будущих учителей. Анализируется научная литература по социальной компетентности и описывается методология исследования. Также определяются принципы, методы и инструменты развития социокультурной компетентности у будущих учителей.*

imrconf.com

Ключевые слова: *компетентность, компетентность, свобода, компетентный подход, базовые компетенции, политические компетенции, социальные компетенции, знания, профессиональная деятельность, личностные качества, педагогические возможности, принципы, формы и инструменты.*

Abstract. *This article examines sociocultural competence as a pedagogical issue. It highlights the content and purpose of social competence, as well as the need to improve it in future teachers. It analyzes the scientific literature on social competence and describes the research methodology. It also identifies the principles, methods, and tools for developing sociocultural competence in future teachers.*

Keywords: *competence, competency, freedom, competence-based approach, basic competencies, political competencies, social competencies, knowledge, professional activity, personal qualities, pedagogical opportunities, principles, forms, and tools.*

imrconf.com

Kirish.Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlash asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta’lim mazmunini faqat bilim berishga yo‘naltirish yetarli bo‘lmay, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik, madaniy ong va muloqot madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va axborot almashinuvi tezlashgan hozirgi sharoitda til o‘rgatish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shaxsning real hayotiy vaziyatlarda bilim, ko‘nikma va malakalarini samarali qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko‘nikma va malaka kabi an’anaviy

pedagogik tushunchalarga nisbatan ancha keng mazmunga ega. (Fernández,J.,2020)

Kompetentlik shaxsning bilim darajasi bilan bir qatorda uning motivatsiyasi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyati, muammoli vaziyatlarga moslasha olish qobiliyati hamda irodaviy va axloqiy sifatlarini o‘z ichiga oladi.

Til o‘rgatish jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati ayniqsa yuqoridir. Chunki til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Tilni o‘rganish jarayonida o‘quvchi faqat grammatik qoidalar va leksik birliklarni egallabgina qolmay, balki ushbu til sohiblari bo‘lgan jamiyatning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlari, muloqot an'analari va axloqiy tamoyillari bilan ham tanishadi. Shu bois til o‘rgatish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish til ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olish, madaniyatlararo farqlarni anglash va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, jamiyatda qabul qilingan axloqiy va kommunikativ me'yorlarga amal qilish qobiliyatini ifodalaydi.(García, L.,2018). Bo‘lajak pedagoglar uchun ushbu kompetensiyaning ahamiyati yanada ortadi, chunki ular nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va madaniy tarbiyasida yetakchi rol o‘ynovchi shaxslar hisoblanadi.Hozirgi vaqtda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish, uni til o‘rgatish jarayoniga integratsiya qilish masalalari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, mazkur jarayonning metodik asoslarini yanada takomillashtirish, samarali usul va vositalarni aniqlash dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish masalasi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.Mazkur fikrdan kelib chiqib, Aleks Mur “ko‘p qirrali qobiliyat” tushunchasiga asos solgan. Ushbu tushuncha kompetentlik

imrconf.com

mazmuniga mos kelib, uning fikricha, “ko‘p qirrali qobiliyatlar deganda turli insonlarning bilim va ko‘nikmalarni turli uslublar orqali egallashi yoki bitta insonning turli faoliyat turlarini turlicha o‘rganishi tushuniladi” (Tashpulatova,F.S.,2021)

Ko‘p qirrali qobiliyatlar nazariyasining eng ilg‘or tarafdorlaridan biri Govard Gardner bo‘lib, uning asarlari keng jamoatchilikka ma’lum.Shuningdek kompetensiyalarni tasniflash bir nechta asoslar orqali amalga oshiriladi:

- insonning umumiy kompetensiyalari (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va boshqalar),
- faoliyat turlari bo‘yicha kompetensiyalar (mehnat, o‘quv, o‘yin, kasbiy),
- faoliyat obyektlari bo‘yicha kompetensiyalar (inson–inson, inson–texnika, inson–tabiat, inson–badiiy timsol va boshqalar),
- ijtimoiy hayot sohalari bo‘yicha kompetensiyalar (maishiy, fuqaroviy, madaniy),
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo‘yicha kompetensiyalar (matematika, gumanitar fanlar),
- ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha kompetensiyalar (transport, aloqa, mudofaa),
- qobiliyatlar bo‘yicha kompetensiyalar (pedagogik, psixologik, ijtimoiy, ijodiy texnik).

Yuqorida keltirilgan kompetensiya yo‘nalishlari shaxsning umumiy madaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuningdek, shaxs kompetentligi mazmuniga ko‘ra uch turga bo‘linadi.

Standart kompetensiya - faoliyatga oid odatiy va doimiy vazifalarni bajarish qobiliyati.

Asosiy kompetensiya - innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati.

imrconf.com

Yetakchi kompetensiya - kasbiy faoliyatning yangi turlarini yaratish qobiliyati.

Nutq madaniyati va ijtimoiy-madaniy kompetensiya tahlil-Har bir sohaning o‘z madaniyati bo‘lganidek, nutqning ham o‘z madaniyati mavjud bo‘lib, u “nutq madaniyati” deb ataladi va bugungi kunda tilshunoslikning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Nutq madaniyati haqida so‘z yuritishdan avval nutq va til tushunchalarining o‘zaro munosabatini aniqlab olish zarur.(González,M.,2015) Til va nutq bir-biri bilan uzviy bog‘liq hodisalardir. Til nutq uchun moddiy asos bo‘lib, nutq ana shu asosda shakllanadi. Tildagi barcha birliklar til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilning ruhiy tomoni inson ongida saqlanishi bilan ifodalansa, moddiy tomoni tovushlar, morfemalar va so‘z shakllari orqali namoyon bo‘ladi.

Nutq - bu til birliklarining real kommunikativ jarayonda, tafakkur, ong va vaziyat bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishidir. Nutq harakatdagi til bo‘lib, nutq a’zolarining faoliyati jarayonida yuzaga keladi va so‘z shakllari, erkin birikmalar, so‘z tartibi hamda gaplardan tashkil topadi.

Madaniy gapirishga intilish barcha xalqlarga xos qadimiy hodisa bo‘lib, u ma’lum lingvistik normalar, etik va estetik talablar bilan bog‘liqdir.(Ташпулатова,Ф., 2023)Demak, nutq madaniyati har bir millatning ma’naviyatini belgilovchi etik va estetik kategoriya hisoblanadi. Hozirgi tilshunoslikda “nutq madaniyati” atamasi uch xil hodisani anglatadi:

1. Madaniy nutq - nutqiy hodisa sifatida.
2. Madaniy nutq bilan bog‘liq ilmiy muammo.
3. Nutq madaniyatini o‘rganadigan tilshunoslik sohasi.

Nutq madaniyatini quyidagicha talqin qilish mumkin.

1. Adabiy til rivojining o‘ziga xos xususiyati;
2. Adabiy til normalarining shakllanishi va silliqlanishiga xizmat qiluvchi faoliyat;

imrconf.com

3. Til qonun-qoidalarini ongli idrok etish va ravon nutq tuza olish mahorati;

4. Fikrni aniq, tushunarli va ta’sirchan ifodalash qobiliyati;

5. To‘g‘ri nutq bilan birga nutqiy chechanlik;

6. Til vositalaridan o‘rinli foydalanish san’ati.

Adabiy til normasi va nutq madaniyati - Nutq madaniyati nutqda qo‘llanilgan birliklarning o‘rinli yoki noo‘rinligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu holat adabiy til normasi bilan belgilanadi. Turli lahjalar, so‘zlashuv tili, jargon va argolar o‘ziga xos normalarga ega bo‘lsa-da, adabiy til normasi jamiyat uchun umumiy va tushunarli bo‘lgan mezon hisoblanadi. 6.....

Adabiy til normasi xalq madaniyati va badiiy adabiyot taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi va mustahkamlanadi. U jamiyat a’zolarini uyushtirishda, ijtimoiy vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy til normalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- leksik-semantik normalar,
- orfoepik (talaffuz) normalar,
- orfografik (yozuv) normalar,
- fonetik normalar,
- urg‘u (aksentologik) normalar,
- grammatik (morfologik va sintaktik) normalar,
- uslubiy normalar,
- punktuatsion normalar,

Adabiy til normasi og‘zaki va yozma shakllarda namoyon bo‘ladi. Og‘zaki adabiy nutq rivojida xalq og‘zaki ijodi namoyandalari muhim rol o‘ynasa, yozma adabiy nutq rivojida yozma adabiyot beqiyos ahamiyatga ega.

imrconf.com

Pedagog nutqi va kasbiy faoliyat-Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u ijtimoiy hodisa sifatida faqat jamiyatda mavjud bo‘ladi. Jamiyat rivojlangan sari til ham rivojlanadi, nutqiy malaka va madaniyat yuksaladi. Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs nutq egasi bo‘lsada, ularni birlashtiruvchi yagona vosita - jamiyat tili hisoblanadi. Nutqiy faoliyatni mukammal egallash adabiy til qoidalarini bilish, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, ommaviy axborot vositalarini tinglash orqali amalga oshadi.

Inson nutqiy faoliyati uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: so‘zlash, mutolaa qilish va eshitish. So‘zlash jarayonida shaxsning bilim darajasi, madaniyati va axloqiy fazilatlari namoyon bo‘ladi.(Mahmudov,T.,2019).So‘zlash monologik va dialogik shakllarda kechadi.

O‘rta maktabda ta’lim olayotgan yosh avlodni tarbiyalashda o‘qituvchi mas’ul shaxs hisoblanadi. Jamiyat o‘z kelajagini o‘qituvchiga ishonib topshiradi. Shu sababli o‘qituvchining nutqi, kasbiy madaniyati va nutqiy malakasi yuqori darajada bo‘lishi zarur. O‘qituvchilik kasbi insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak madaniyat va mukammal nutq madaniyatini talab etadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani til o‘rgatish jarayoniga integratsiya qilish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim faqatgina lingvistik bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, madaniy xabardorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuv kabi sifatlarni shakllantirishni ham talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy-madaniy kompetensiya til o‘rgatish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining mazmuni tahlil qilinib, ularning shaxs rivojidagi o‘rni yoritildi. Kompetentlik shaxsning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki uning motivatsiyasi, qadriyatlari, tafakkuri, mustaqilligi va ijtimoiy mas’uliyatini ham qamrab olishi asoslab

imrconf.com

berildi. (Tashpulatova,F.S.,2023).Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani nazariyasi shaxsning turli faoliyat sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning muhimligini tasdiqlaydi.Shuningdek, maqolada nutq madaniyati ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqildi. Til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi, nutq madaniyatining adabiy til normalariga asoslanishi hamda jamiyat ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni ochib berildi. Nutq madaniyati shaxsning muloqot jarayonida fikrini aniq, ravon, tushunarli va maqsadga muvofiq ifodalashini ta’minlab, uning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.

Adabiy til normasi va nutq madaniyati masalalarining yoritilishi til o‘rgatish jarayonida normativlikka amal qilish, talaffuz, grammatik, uslubiy va leksik me’yorlarni egallashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, pedagog shaxsida nutq madaniyatining yuqori darajada shakllangan bo‘lishi ta’lim samaradorligining muhim omillaridan biri ekanligi asoslab berildi. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar uchun ijtimoiy-madaniy namuna hisoblanadi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, ijtimoiy-madaniy kompetensiyani til o‘rgatish jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarda kommunikativ madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. Bu jarayon ta’limning tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalarini uyg‘un holda amalga oshirishga imkon beradi. Natijada, til o‘rgatish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni egallashga, balki jamiyatda faol, madaniyatli va kompetent shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

imrconf.com

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Fernández, J. (2020). "Integrative Approaches to Listening Skills Development." *Language Teaching Research*, 24(4), 398-412.

2. García, L. (2018). "Uso de entornos de aprendizaje multimodal en la enseñanza de idiomas." *Modern Language Journal*, 102(1), 12-25.

3. Tashpulatova, F. S. (2021). Methodology of developing auditing skills and skills of Spanish language students. www. auris-verlag. de.

4. González, M. (2015). "El desarrollo de las habilidades de escucha en contextos educativos." *Revista de Lingüística Aplicada,* 32(2), 145-163.

5. Ташпулатова, Ф. (2023). Педагогические особенности, методы и понятия, используемые в обучении творческого мышления. Интернаука. Научный elektron журнал. Москва, 1(271), 17-18.

6. Mahmudov, T. (2019). "Interfaol metodlar orqali chet tilini o‘qitish." *Tilshunoslik va Pedagogika*, 5(2), 112-119.

7. Tashpulatova, F. S. (2023). Tinglab tushunishda og‘zaki nutqning, kommunikativ yo ‘nalganlik tushunchalarini aniqlash. образование наука и инновационные идеи в мире, 23(6), 107-109.

imrconf.com